



XX ASR IKKINCHI YARMI AMERIKA TARIXIY ROMANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA POETIK TRANSFORMATSIYASI

Nurali Boqiyev,

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi.

MDWCT@mail.ru

0009-0004-2199-8778

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1803>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 39

**KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА**

Amerika tarixiy romani, davrlashtirish, poetik transformatsiya, tarixiy narrativ, revizionizm, postmodernizm, multikulturalizm, tarixiy xotira, travma, milliy identitlik

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada XX asr ikkinchi yarmidagi Amerika tarixiy romanining rivojlanish bosqichlari va poetik transformatsiyasi tahlil qilinadi. 1950–2000-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarning janrga ta'siri, rasmiy milliy narrativning qayta ko'rib chiqilishi, muqobil tarixiy ovozlarning kuchayishi, postmodernistik strategiyalar hamda tarixiy xotira va travma muammolarining badiiy talqini yoritiladi. Tadqiqotda janr taraqqiyoti 1950–1965, 1965–1979, 1980–1992 va 1992–2000-yillar bosqichlari asosida tavsiflanadi. Jon Bart, Tomas Pinchon, Uilyam Stayron, E.L. Doktorou, Toni Morrison va Cormak Makkarti asarlari misolida tarixiy narrativning an'anaviy modeldan revizionistik, postmodernistik va xotiraga yo'naltirilgan shakllarga o'tishi ko'rsatiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Amerika tarixiy romanining rivojlanishini faqat xronologik ketma-ketlik asosida emas, balki tarixiy ong va poetik dominantlarning almashinuvi nuqtayi nazaridan izohlash bilan belgilanadi. Maqolada tarixiy fakt va badiiy to'qima munosabati, muqobil tarixiy ovozlarning shakllanishi, fragmentar va ko'p ovoqli narrativ, tarixiy xotira hamda travmaning badiiy ifodasi o'zaro bog'liq poetik hodisalar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Amerika tarixiy romanida milliy miflarning qayta talqin qilinishi, marginal guruhlar tajribasining tarixiy narrativga kiritilishi va tarixni anglashning subyektivlashuvi janr transformatsiyasining muhim omillari sifatida asoslanadi. Ushbu yondashuv XX asr oxiriga kelib tarixiy romanning o'tmishni tasvirlash vositasidan tarixiy haqiqat, xotira va milliy identitlikni tanqidiy qayta anglash vositasiga aylanganini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 39

KEYWORDS

American historical novel, periodization, poetic transformation, historical narrative, revisionism, postmodernism, multiculturalism, historical memory, trauma, national identity

ANNOTATION

This article examines the development and poetic transformation of the American historical novel in the second half of the twentieth century. It focuses on the impact of the Civil Rights Movement, the Vietnam War, feminism, multiculturalism, and postcolonial thought on the genre's thematic and narrative structures. The evolution of the historical novel is discussed through four stages: late traditionalism and emerging ruptures; revision and alternative narratives; the rise of postmodernism; and post-postmodernist experimentation. Works by John Barth, Thomas Pynchon, William Styron, E.L. Doctorow, Toni Morrison, and Cormac McCarthy demonstrate the shift from affirming official national history toward revisionist, self-reflexive, and memory-oriented forms. The scholarly significance of the study lies in interpreting the development of the American historical novel not merely as a chronological sequence, but as a process shaped by shifts in historical consciousness and dominant poetic strategies. The article examines the relationship between historical fact and fictional representation, the emergence of alternative historical voices, fragmented and polyphonic narration, and the literary representation of historical memory and trauma as interconnected aspects of the genre's transformation. Particular attention is also given to the reinterpretation of national myths, the incorporation of marginalized groups' experiences into historical narratives, and the increasing subjectivization of historical perception. This approach demonstrates that by the end of the twentieth century, the historical novel had evolved from a form primarily concerned with representing the past into a complex literary mode for critically reconsidering historical truth, collective memory, and national identity.

Kirish

XX asrning ikkinchi yarmida Amerika adabiyotida tarixiy roman jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy transformatsiyalariga munosabat bildiruvchi muhim janrlardan biriga aylandi. Tarixiy ongning badiiy ifodasi ayniqsa inqiroz va mafkuraviy burilishlar davrida kuchayadi: bunday sharoitda adabiyot o'tmishni qayta ko'rib, bugunning mazmunini tarixiy tajriba orqali anglashga intiladi. 1950–2000-yillar AQSh tarixida Vyetnam urushi, fuqarolik huquqlari harakati, feminist va kontmadaniyat harakatlari, irqiy tenglik uchun kurash hamda "Amerika orzusi"ga nisbatan tanqidiy munosabat kuchaygan davr bo'ldi. Bu jarayonlar milliy identitlik va tarixiy missiya haqidagi avvalgi optimistik qarashlarni qayta baholashga olib keldi.

Mazkur o'zgarishlar tarixiy roman poetikasida ham aks etdi. XX asrning birinchi yarmida rasmiy tarixiy talqinni tasdiqlovchi yoki uni deyarli shubhasiz qabul qiluvchi modellarga moyillik kuchli bo'lgan bo'lsa, asrning ikkinchi yarmida janr revizionistik xarakter kasb etdi. Afroamerikaliklar, ayollar, tub xalqlar va boshqa chetda qolgan guruhlarning tarixiy tajribasi badiiy diskursga faol kirib keldi. Shu bilan birga, tarixiy haqiqatni obyektiv va yakuniy shaklda ifodalash mumkinligiga bo'lgan ishonch zaiflashib, tarix qanday yozilishi, kim

tomonidan va qaysi pozitsiyadan talqin qilinishi masalasi markaziy poetik muammoga aylandi [3, 4-bet].

Shu nuqtayi nazardan, XX asr ikkinchi yarmi Amerika tarixiy romanini yagona va o'zgarish hodisa sifatida ko'rish yetarli emas. Uning taraqqiyoti turli bosqichlarda turlicha poetik dominantlarni namoyon etdi. Mazkur maqolaning maqsadi 1950–2000-yillardagi Amerika tarixiy romanining rivojlanish bosqichlarini aniqlash, ulami ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'lash va janr poetikasidagi asosiy transformatsiyalarni tavsiflashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

XX asr ikkinchi yarmi Amerika tarixiy romanini o'rganishda adabiy jarayon tarixi, tarixiy narrativ nazariyasi va postmodernizmga oid tadqiqotlarni birgalikda ko'rib chiqish zarur. Y.N. Zasurskiyning Amerika adabiyotiga bag'ishlangan fundamental tadqiqoti XX asr AQSh adabiyotining asosiy tendensiyalarini keng tarixiy-adabiy fonda yoritadi [1]. Biroq 1950–2000-yillardagi tarixiy roman evolyutsiyasini alohida davrlashtirish uning markaziy vazifasi emas. Shu sababli janrning ichki poetik o'zgarishlarini ijtimoiy-madaniy burilishlar bilan bog'lash alohida tahlilni talab qiladi.

Alan Nadelning Containment Culture tadqiqoti urushdan keyingi

Amerika madaniyatini "containment" narrativi orqali tushuntiradi. Olim Sovuq urush davrida siyosiy, gender va madaniy me'yorlarni tartibga solgan ushbu hukmron narrativning yemirilishini Amerika postmodernizmining shakllanishi bilan bog'laydi [2]. Bu yondashuv 1950–1960-yillardagi tarixiy roman o'zgarishlarini faqat formal tajriba emas, balki urushdan keyingi milliy optimizmning zaiflashishi bilan bog'lash imkonini beradi.

Hayden White tarixiy bayonning o'zi ham tanlash, bog'lash va narrativ shaklga keltirish jarayonidan iborat ekanini ko'rsatadi. Uning *Tropics of Discourse* asaridagi tarixiy matn va faktual representatsiya haqidagi qarashlari tarix bilan badiiy narrativ o'rtasidagi chegarani murakkablashtirdi [3]. Bu konsepsiya 1960-yillardan boshlab Jon Bart va Tomas Pinchon romanlarida kuchaygan narrativ ishonchsizlikni tushuntirishda muhimdir: tarix endi yakunlangan va bir ma'noli haqiqat emas, balki turli diskurslar orqali qayta quriladigan hodisa sifatida talqin qilina boshladi.

Linda Hutcheon *A Poetics of Postmodernism* asarida historiographic metafiction tushunchasini ishlab chiqib, tarixiy voqealikka murojaat qilgan holda uning hikoya qilinish shartlarini ham ochib beruvchi postmodern asarlarni tavsiflaydi [4]. Elisabeth Wesseling esa postmodern tarixiy romanning self-reflexive, muqobil va siyosiy imkoniyatlarini janr evolyutsiyasi doirasida tahlil qiladi [5]. Ularning qarashlari E.L. Doctorowning *Ragtime* kabi romanlarida real tarixiy shaxslar bilan to'qima personajlarning bir makonda birlashtirilishi, tarixiy manbaning parodiya va metafiksiya orqali qayta qurilishi kabi hodisalarni izlashga yordam beradi.

Afroamerikan tarixiy nasrining revizionistik tabiatini Ashraf H.A. Rushdy neo-slave narrative konsepsiyasi orqali chuqur tadqiq etadi. U qullik tarixining 1960-yillardan keyingi adabiyotda qayta yozilishini ijtimoiy va madaniy bahslar bilan bog'laydi hamda Uilyam Stayronning *The Confessions of Nat Turner* romani atrofida polemikani tarixiy ovoz va representatsiya huquqi masalasi bilan izohlaydi [6]. Nancy J. Peterson esa zamonaviy ayol yozuvchilar ijodida tarixiy xotira va rasmiy tarixga qarshi kollektiv eslash jarayonlarini o'rganadi [7].

Amy J. Elias *Sublime Desire* tadqiqotida 1960-yillardan keyingi tarixiy nasrni siyosiy to'ravonlik va tarixiy bilimga ishonchning murakkablashuvi bilan bog'lab, postmodernizmni ma'lum ma'noda posttravmatik tasavvur sifatida talqin qiladi [8]. Jerome de Groot tarixiy romanni fakt va to'qima, identifiklik, tarix, autentiklik va o'qish muammolarini birlashtiruvchi dinamik janr sifatida ko'radi [9]. Ushbu tadqiqotlar birgalikda qaralganda, Amerika tarixiy romanining ikkinchi yarmidagi taraqqiyotida milliy narrativni tanqid qilish, tarixiy ovozning demokratlashuvi, postmodern metafiksiya va travmatik xotiraning kuchayishi asosiy tendensiyalar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tarixiy-tipologik metod asosiy usul sifatida qo'llanildi. Bu metod 1950–2000-yillarda yaratilgan Amerika tarixiy romanlarini ularning tarixiy-madaniy konteksti, rasmiy milliy narrativga munosabati va ustuvor poetik strategiyalariga ko'ra qiyoslash imkonini beradi. Davrlashtirish oddiy xronologik chegara emas, balki har bir bosqichda tarixiy ong, narrativ model va janriy dominantlarning o'zgarishini ifodalovchi tipologik mezon sifatida qaraldi. Shu asosda 1950–1965-yillardagi kechki an'anaviylik va dastlabki yoriqlar, 1965–1979-yillardagi revizionistik va muqobil narrativlar, 1980–1992-yillardagi postmodernistik yuksalish, 1992–2000-yillardagi tarixiy xotira, travma va axloqiy mas'uliyatga yo'naltirilgan izlanishlar tahlil qilindi.

Natijalar

Bu davrda tarixiy roman an'anaviy shaklni saqlagan bo'lsa-da, tarixiy hikoyaning ishonchiligi va yaxlitligiga nisbatan shubha kuchaya boshladi. Jon Bartning *The Sot-Weed Factor* (1960) romani real tarixiy shaxs Ebenezer Cooke haqidagi cheklangan ma'lumotlardan foydalanadi, biroq tarixni qayta tiklashdan ko'ra manba, parodiya va stilizatsiya bilan o'ynaydi [10]. Natijada tarixiy faktning o'zi emas, balki fakt qanday hikoya qilinishi badiiy muammoga aylanadi.

Tomas Pinchonning V. (1963) romani bu tendensiyani fragmentar kompozitsiya va ko'p makonli tuzilish orqali kuchaytiradi [11]. Turli vaqt va geografik qatlamlarning bir-biriga ulanib ketishi tarixni chiziqli sababiy tizim sifatida qabul qilishni qiyinlashtiradi. Shunday qilib, 1950–1965-yillarda tarixiy romanning klassik rekonstruktiv modeli saqlangan holda, uning ichida metanarrativ refleksiya va tarixiy bilimga shubha qilish unsurlari shakllandi.

1965–1979-yillarda tarixiy roman poetikasidagi asosiy burilish "kim tarixni hikoya qilish huquqiga ega?" degan savol bilan bog'liq bo'ldi. Uilyam Stayronning *The Confessions of Nat Turner* (1967) romani 1831-yilgi qullar qo'zg'olonini tarixiy Turnerning birinchi shaxs nutqi orqali badiiy rekonstruksiya qiladi [12]. Tarixiy hujjatlar mavjud bo'lmagan psixologik va biografik bo'shliqlarning muallif tomonidan to'ldirilishi keskin bahs tug'dirdi; bu polemika tarixiy shaxs nomidan gapirish, irqiy

tajribani representatsiya qilish va tarixiy ovozning legitimligi masalalarini adabiy markazga olib chiqdi [6].

E.L. Doctorowning *Ragtime* (1975) romanida Houdini, Emma Goldman, Henry Ford, J.P. Morgan va Freud singari real tarixiy shaxslar to'qima oilalar bilan bir narrativ makonda harakat qiladi [13]. Bunda tarix siyosiy xronika emas, turli ijtimoiy qatlamlarning parallel tajribasi sifatida namoyon bo'ladi. Aleks Xeylining *Roots* (1976) asari esa afroamerikalik oilaviy tarixni milliy xotira markaziga olib chiqdi [14]. Bu bosqichning asosiy natijasi tarixiy ovozning demokratlashuvi, ya'ni rasmiy narrativdan chetda qolgan irqiy va ijtimoiy tajribalarning tarixiy roman strukturasi ga faol kiritilishidir.

1980–1992-yillar tarixiy roman poetikasida milliy miflarni dekonstruksiya qilish va tarixiy travmani anglash kuchaygan davrdir. Kormak Makkartining *Blood Meridian* (1985) romani Amerika G'arbinning klassik frontir mifini zo'ravonlik, qirg'in va mustamlakachilik tajribasi orqali qayta talqin qiladi [15]. An'anaviy vesternlarda taraqqiyot va erkinlik makoni sifatida tasvirlangan frontir bu asarda shafqatsizlik va bosib olish makoniga aylanadi. Bu o'zgarish milliy tarixning optimistik modeliga tubdan qarama-qarshi badiiy pozitsiyani ifodalaydi.

Toni Morrisonning *Beloved* (1987) romani qullik tarixini travmatik xotira orqali qayta anglashning yorqin namunasi hisoblanadi [16]. Margaret Garner bilan bog'liq real tarixiy hodisadan ilhomlangan roman tarixiy voqeani oddiy retrospektiv bayon qilmaydi; parchalangan xotira, chiziqli bo'lmagan vaqt va arvoh motivi orqali qullikning hozirgi hayotda davom etayotgan ruhiy oqibatlarini tasvirlaydi. Shu tariqa tarixiy roman "nima sodir bo'lgan?" degan savoldan tashqari "tarixiy jarohat keyingi avlod ongida qanday yashaydi?" degan savolni ham markazga olib chiqadi.

1992–2000-yillarda postmodernistik formal tajriba saqlanib qolgan bo'lsa-da, tarixiy xotira va axloqiy mas'uliyatga e'tibor kuchaydi. Toni Morrisonning *Jazz* (1992) romanida 1920-yillar Harlemi afroamerikaliklarning Buyuk migratsiya tajribasi, oilaviy xotira va shahar madaniyati bilan bog'lanadi [17]. Narrativning jaz musiqasiga xos takror, improvizatsiya va bir-birini tuzatuvchi ovozlarning asosida qurilishi tarixiy haqiqatni yagona narrator monopoliyasidan chiqaradi.

Tomas Pinchonning Mason & Dixon (1997) romani real tarixiy shaxslar Charles Mason va Jeremiah Dixon faoliyatini fakt, afsona va fantastik elementlar bilan birlashtiradi [18]. Mason–Dixon chizig'i romanda oddiy kartografik obyekt bo'lib qolmay, Amerika tarixidagi siyosiy, irqiy va madaniy chegaralarning ramziga aylanadi. Shunday qilib, asr oxiridagi tarixiy roman postmodernistik shubhani tarixni inkor qilish uchun emas, balki uning ko'p qatlamli va pozitsion tabiatini ko'rsatish uchun ishlatadi.

O'tkazilgan tahlil to'rt bosqichning har biri alohida poetik dominantga ega ekanini ko'rsatdi. 1950–1965-yillarda tarixiy narrativga ishonchning zaiflashuvi kuzatilsa, 1965–1979-yillarda rasmiy tarixning reviziyasi va muqobil ovozlarning kuchayishi ustun bo'ladi. 1980–1992-yillarda tarixiy travma va milliy miflarni dekonstruksiya qilish yetakchi xususiyatga aylanadi. 1992–2000-yillarda esa ko'p ovoqli xotira, metatarixiy refleksiya va axloqiy mas'uliyat bir-biri bilan uyg'unlashadi. Demak, taklif etilgan davrlashtirish yillar ketma-ketligiga emas, tarixiy romanning estetik, epistemologik va madaniy funksiyalaridagi dominant almashinuvlarga asoslanadi.

Muhokama

XX asr ikkinchi yarmi Amerika tarixiy romanining rivojlanish jarayoni shuni ko'rsatadiki, janming poetik o'zgarishi bevosita tarixni anglash usullarining yangilanishi bilan bog'liq holda kechgan. Mazkur davrda tarixiy roman faqat o'tmish voqealarini badiiy qayta tiklovchi janr sifatida emas, balki tarixiy bilimning shakllanish mexanizmlarini, xotiraning tabiatini, milliy identifiklikning qarama-qarshi jihatlarini va rasmiy tarixning cheklanganligini muhokama qiluvchi estetik maydonga aylandi. Shu jihatdan qaralganda, Amerika tarixiy romanidagi transformatsiya faqat mavzu almashinuvi bilan belgilanmaydi; u narrativ qurilish, vaqt va makon talqini, personajlar tizimi, muallif pozitsiyasi hamda tarixiy fakt va badiiy to'qima o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishida ham namoyon bo'ladi.

1950–1965-yillardagi jarayonni keyingi postmodernistik tajribalarning dastlabki estetik zaminlaridan biri sifatida baholash mumkin. Bu davrda tarixiy material hali janming asosiy tayanchi bo'lib qolgan bo'lsa-da, tarixni yaxlit va obyektiv tarzda qayta tiklash imkoniyatiga nisbatan shubha paydo bo'la boshladi. Jon Bartning *The Sot-Weed Factor* romanida tarixiy manbaning parodik qayta ishlalishi aynan shu o'zgarishning muhim belgisi sifatida ko'rinadi. Tarixiy voqealarni "tiklash" o'rni uni stilizatsiya, grotesk va intertekstual o'yinlar orqali qayta qurish tarixiy roman poetikasining yangi imkoniyatlarini ochdi. Tomas Pinchon ijodida esa tarixning fragmentarligi, vaqt qatlamlarining o'zaro qorishishi va yagona sababiy izchillikning buzilishi yanada kuchli namoyon bo'ldi. Bu holat tarixiy romanning epistemologik tabiatini o'zgartirib, "tarix nima?" degan savolni "tarix qanday qilib narrativga aylanadi?" degan

savol bilan to'ldirdi.

1965–1979-yillar bosqichida tarixiy roman rivojiga ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta'siri yanada bevosita tus oldi. Fuqarolik huquqlari harakati, irqiy tenglik uchun kurash va feministik qarashlarning kuchayishi milliy tarixning kimlar tomonidan va qanday nuqtayi nazardan bayon etilganini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi. Shu sharoitda tarixiy roman ilgari markazdan chetlashtirilgan subyektlarning tajribasini badiiy xotiraga kiritish vositasiga aylandi. Uilyam Stayronning *The Confessions of Nat Turner* asari atrofida bahslar tarixiy personajning ichki dunyosini badiiy tasavvur qilish bilan birga, boshqa irqiy va madaniy guruh vakili nomidan gapirishning chegaralarini ham kun tartibiga olib chiqdi. Demak, mazkur bosqichda tarixiy roman faqat tarixni qayta yozish emas, balki tarixni kim qayta yozishi mumkinligi haqidagi masalani ham o'z ichiga oldi.

E.L. Doctorowning *Ragtime* romani ushbu jarayonning boshqa bir poetik ko'rinishini namoyon etadi. Real tarixiy shaxslarning to'qima personajlar bilan bir narrativ makonda birlashtirilishi tarixiy voqealik va badiiy tasavvur o'rtasidagi chegarani ataylab xiralashtiradi. Bunday usul tarixni yagona siyosiy voqealar ketma-ketligi sifatida emas, turli ijtimoiy guruhlarning parallel tajribalari yig'indisi sifatida tasavvur qilish imkonini beradi. Aleks Xeylining *Roots* asari bilan bog'liq tarixiy xotira modeli esa shaxsiy va oilaviy genealogiyani milliy tarix bilan tutashtiradi. Natijada tarixiy roman makro tarixdan mikro tarixga, davlat va siyosiy institutlar tarixidan oddiy insonning hayotiy tajribasiga tomon siljiydi.

1980–1992-yillarda yuzaga kelgan poetik o'zgarishlar avvalgi revizionistik tendensiyalarni yanada chuqurlashtirdi. Bu davrda tarixiy romanning muhim vazifalaridan biri milliy miflarning ichki ziddiyatlarini ochib berish bo'ldi. Kormak Makkartining *Blood Meridian* romani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Asarda Amerika G'arbining an'anaviy "frontier" modeli — erkinlik, taraqqiyot va yangi imkoniyatlar makoni haqidagi tasavvur — zo'ravonlik, istilo va insoniylikning yemirilishi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Shu tariqa tarixiy roman milliy o'zlikni tasdiqlovchi miflarni takrorlashdan ko'ra, ularning shakllanishidagi zo'ravonlik va qarama-qarshiliklarni ochib beruvchi tanqidiy mexanizmga aylanadi.

Toni Morrisonning *Beloved* romani esa tarixiy xotira masalasini yangi psixologik va poetik darajaga olib chiqadi. Qullik tarixining oqibatlari faqat tarixiy voqea sifatida emas, balki avlodlar ongida davom etuvchi ruhiy tajriba sifatida ifodalanadi. Bunda xotiraning fragmentarligi, vaqtning chiziqli bo'lmaganligi va o'tmishning hozirgi zamonga qayta-qayta kirib kelishi tarixiy travmaning poetik modelini shakllantiradi. Muhim jihati shundaki, bunday romanlarda tarix tashqi voqealar majmui sifatida emas, inson ongida yashaydigan tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli tarixiy haqiqatni anglash uchun arxiv yoki rasmiy hujjatning o'zi yetarli emas; individual xotira, sukut, og'riq va avlodlararo tajriba ham tarixiy bilimning muhim manbasiga aylanadi.

1992–2000-yillar bosqichida tarixiy roman avvalgi postmodernistik tajribalarni saqlab qolgan holda, tarixiy xotiraning axloqiy va identifikatsion jihatlariga ko'proq e'tibor qaratadi. Toni Morrisonning *Jazz* romanida tarixiy vaqt bir yo'nalishli xronologiya sifatida emas, turli ovozlari, xotiralar va individual taqdirning o'zaro kesishuvi sifatida quriladi. Bunda narrativ ovozning o'zgaruvchanligi tarixni bitta nuqtayi nazardan izohlash imkoniyatini cheklaydi. Tomas Pinchonning *Mason & Dixon* romanida esa tarixiy fakt, afsona, fantastika va falsafiy mulohaza birlashib, tarixiy chegaralarning ramziy ma'nosini kengaytiradi. Shunday qilib, asr oxiriga kelib tarixiy roman tarixiy voqeani "to'g'ri" bayon

qilishdan ko'ra, turli haqiqatlarning qanday kesishishini ko'rsatishga intiladi.

Mazkur jarayonlarni Hayden White, Linda Hutcheon va Elisabeth Wesseling qarashlari bilan qiyoslash tarixiy roman poetikasidagi o'zgarishlarning nazariy asoslarini yanada aniqlashtiradi. White tarixiy bayonning narrativ shakllantirish xususiyatiga e'tibor qaratgan bo'lsa, Hutcheon tarix va badiiy to'qima o'rtasidagi chegarani o'z-o'zini anglaydigan postmodern matn orqali izohlaydi. Wesseling esa tarixiy romanning postmodern sharoitda muqobil tarixlarni yaratish imkoniyatini ko'rsatadi. Amerika tarixiy romani misolida ushbu nazariy qarashlar tarixiy faktning inkor etilishi emas, balki uning bir nechta nuqtayi nazardan qayta talqin qilinishi jarayoni bilan uyg'unlashadi.

Shu bilan birga, Amerika tarixiy romanining rivojlanishini faqat postmodernizmning kuchayishi bilan izohlash biryozlama yondashuv bo'ladi. Janrda an'anaviy tarixiy rekonstruksiya elementlari ham saqlanib qoldi. Farq shundaki, ular endi ko'pincha o'zining tarixiylik darajasi va narrativ shartlilikini anglagan holda qo'llanadi. Tarixiy roman bir tomondan o'tmish haqida hikoya qilsa, ikkinchi tomondan o'tmish haqidagi hikoyaning qanday yaratilayotganini ham ko'rsatadi. Ana shu ikki qatlamlilik XX asr oxiridagi Amerika tarixiy romanining muhim poetik belgilaridan biridir.

Yana bir muhim jihat — janrning tarixiy subyekti kengayganidir. Dastlab milliy tarix ko'proq davlat, urush, siyosiy yetakchilar va mashhur tarixiy shaxslar atrofida qurilgan bo'lsa, asrning ikkinchi yarmida qullar, migrantlar, ayollar, ishchilar, etnik va irqiy ozchiliklar ham tarixiy narrativning faol subyektlariga aylandi. Bu o'zgarish tarixiy roman poetikasida personajlar tizimining demokratlashuviga olib keldi. Tarixiy jarayon endi faqat "buyuk shaxslar" faoliyati bilan emas, kundalik hayot, oilaviy xotira va jamoaviy tajriba orqali ham tushuntiriladigan bo'ldi.

XX asr ikkinchi yarmi Amerika tarixiy romanining poetik transformatsiyasini uch o'zaro bog'liq yo'nalishda ko'rish mumkin: tarixiy haqiqatning mutlaq va yagona ekaniga shubhaning kuchayishi; rasmiy tarixdan chetda qolgan ovozlarning narrativ markazga kirib kelishi; tarixiy xotiraning individual va kollektiv travma bilan bog'lanishi. Ushbu uch yo'nalish bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, janr taraqqiyotining turli bosqichlarida bir-birini to'ldiradi. Natijada Amerika tarixiy romani o'tmishni tasvirlovchi an'anaviy janrdan tarix, xotira, identiklik va narrativ haqiqatning o'zaro munosabatlarini tekshiruvchi murakkab estetik shaklga aylanadi.

Xulosa

XX asrning ikkinchi yarmida Amerika tarixiy romani ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida sezilarli poetik transformatsiyani boshdan kechirdi. 1950–1965-yillarda an'anaviy tarixiy narrativ ichida ishonchlilikka nisbatan dastlabki shubhalar shakllandi; 1965–1979-yillarda rasmiy milliy tarixni qayta ko'rib chiqish va muqobil ovozlarni markazga olib chiqish kuchaydi. 1980–1992-yillarda postmodernistik poetika, tarixiy travma va milliy miflarni dekonstruksiya qilish yetakchi yo'nalishga aylandi, 1992–2000-yillarda esa tarixiy xotira, ko'p ovozlilik va axloqiy mas'uliyat masalalari ustuvorlik kasb etdi. Shu bois mazkur davrlashtirish Amerika tarixiy romanining ichki evolyutsiyasini faqat xronologik emas, poetik va tipologik jihatdan ham izchil yoritishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Засурский Я. Н. Американская литература XX века. 2-е изд. — М.: Изд-во МГУ, 1984. — 503 с. URL: https://www.studmed.ru/zasurskiy-ya-n-amerikanskaya-literatura-xx-veka_ad01cd7e288.html
2. Nadel A. Containment Culture: American Narratives, Postmodernism, and the Atomic Age. — Durham: Duke University Press, 1995. — 352 p. DOI: 10.1215/9780822381976. URL: <https://www.dukeupress.edu/containment-culture>
3. White H. Tropics of Discourse: Essays in Cultural Criticism. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978. URL: <https://www.press.jhu.edu/books/title/2950/tropics-discourse>
4. Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. — New York; London: Routledge, 1988. — 288 p. URL: <https://www.routledge.com/A-Poetics-of-Postmodernism-History-Theory-Fiction/Hutcheon/p/book/9780415007061>
5. Wesseling E. Writing History as a Prophet: Postmodernist Innovations of the Historical Novel. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1991. — 218 p. URL: <https://benjamins.com/catalog/upal.26>
6. Rushdy A. H. A. Neo-slave Narratives: Studies in the Social Logic of a Literary Form. — New York: Oxford University Press, 1999. DOI:

10.1093/oso/9780195125337.001.0001.

URL:

<https://academic.oup.com/book/48688>

7. Peterson N. J. Against Amnesia: Contemporary Women Writers and the Crises of Historical Memory. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2001. — 256 p. URL: <https://www.pennpress.org/9780812235944/against-amnesia/>
8. Elias A. J. Sublime Desire: History and Post-1960s Fiction. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2003. URL: <https://www.press.jhu.edu/books/title/2412/sublime-desire>
9. de Groot J. The Historical Novel. — London; New York: Routledge, 2010. — 208 p. URL: <https://www.routledge.com/The-Historical-Novel/DeGroot/p/book/9780415426626>
10. Barth J. The Sot-Weed Factor. — Garden City, NY: Doubleday, 1960. URL: <https://search.worldcat.org/title/1432878>
11. Pynchon T. V. — Philadelphia: J. B. Lippincott, 1963. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/312578/v-by-thomas-pynchon/>
12. Styron W. The Confessions of Nat Turner. — New York: Random House, 1967. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/175065/the-confessions-of-nat-turner-by-william-styron/>

13. Doctorow E. L. Ragtime. – New York: Random House, 1975. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/41529/ragtime-by-e-l-doctorow/9780812978186/>
14. Haley A. Roots: The Saga of an American Family. – Garden City, NY: Doubleday, 1976. URL: <https://www.hachettebookgroup.com/titles/alex-haley/roots/9780306824869/>
15. McCarthy C. Blood Meridian; or, The Evening Redness in the West. – New York: Random House, 1985. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/110472/blood-meridian-by-cormac-mccarthy/>
16. Morrison T. Beloved. – New York: Alfred A. Knopf, 1987. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/117647/beloved-pulitzer-prize-winner-by-toni-morrison/>
17. Morrison T. Jazz. – New York: Alfred A. Knopf, 1992. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/843031/jazz-by-toni-morrison/>
18. Pynchon T. Mason & Dixon. – New York: Henry Holt and Company, 1997. URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/312582/mason-and-dixon-by-thomas-pynchon/9781101594643/>